



O'zbekiston
Respublikasi Sog'liqni
saqlash vazirligi




Respublika Ilmiy
Ixtisoslashtirilgan
Allergologiya markazi



Toshkent Tibbiyot
Akademiyasi



Tibbiyot xodimlarining
kasbiy malakasini
rivojlantirish markazi



INUNIMAI
International Network of
Universities for Molecular
Allergology and Immunology

MOLEKULYAR ALLERGOLOGIYANING RIVOJLANISH DAVRI

MAVZUSIDAGI

O'ZBEKISTON ALLERGOLOG-KLINIK
IMMUNOLOGLARINING II XALQARO KONGRESSI

TEZISLAR TO'PLAMI



TOSHKENT
24-25 noyabr 2022

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

**RESPUBLIKA ILMIY IXTISOSLASHTIRILGAN ALLERGOLOGIYA
MARKAZI**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

**TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI
RIVOJLANTIRIRSH MARKAZI**

MOLEKULYAR ALLERGOLOGIYANING RIVOJLANISH DAVRI

**O`ZBEKISTON ALLERGOLOG-KLINIK IMMUNOLOGLARINING II
XALQARO KONGRESSI**

TEZISLAR TO`PLAMI

TOSHKENT-2022

бўлди. Касалликнинг давомийлиги ошиши ва касалликнинг оғирроқ даражаси билан касалланганлар орасида бу фарқ катта бўлган беморлар сони сезиларли ошгани аниқланди. Текширилувчиларда IgA нинг секретор бўлмаган шакли ўзгаришсиз нормал чегарада қолди. 41% беморларда IgG даражаси юқори чиқди. Тез-тез касал бўлувчи гуруҳга кирадиган болаларнинг тахлил натижалари ёшга нисбатан ўзгарувчан бўлди. Беморларнинг 80% дан ортиғида нормал кўрсаткичлар аниқланган. Ўзгаришлар ҳам асосан IgA даражаси билан боғлиқ эди. Беморларда секретор IgA иммуноглобулинларининг фақат паст қийматлари қайд этилган. Бундан ташқари, параллел равишда 35% IgA нинг секретор бўлмаган шаклининг пасайиши ҳам кузатилди. Барча иммуноглобулинларнинг юқори концентрацияси бу гуруҳ беморлар учун хос эмас эди.

Хулоса. Тадқиқот шуни кўрсатдики, бронхиал астма ва тез-тез касал бўладиган гуруҳга кирувчи болалар сўлағида сезиларли даражада фарқ қиладиган иммуноглобулинлар картинаси мавжуд. Тез-тез касал бўладиган гуруҳга кирувчи болалар сўлағидаги иммуноглобулинлар шиллиқ қаватда иммунологик реактивликнинг пасайишини тасдиқлади. Аксинча, БА касаллиги бўлган болаларда бу иммунологик реактивлик ҳолати анча юқори. Ушбу маълумотлар БА патогенезидаги гиперреактивлик ҳамда респиратор инфекциялар билан тез-тез касал бўлувчилардаги иммунодефицит ҳолат учраши ҳақидаги умумий назарияларга тўла мос келади.

Bronxial astma va semizlik birga kelgan bemorlarda sitokinlarning o'ziga xosligi

S.X. Matchanov, D.S. Abdurazzakova, K.K. Aliyeva, N.S. Nurmuhamedova

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Maqsad: bronxial astma (BA) bilan kasallangan va semizligi bo'lgan bemorlarda ba'zi sitokinlarning holatini baholash.

Tekshiruv usullari: Tadqiqotga BA o'rta og'ir persistirlovchi kechuvchi 60 ta 35 – 50 yoshlar orasidagi bemorlar olindi, ulardan 25 nafari erkak, 35 nafari ayol kishidan iborat. Barcha bemorlarga umumiy klinik tekshiruvlar bilan bir qatorda antropometrik ko'rsatkichlar, tana massa indeksi hamda qon zardobidgi sitokinlar – interleykinlar IL-1 β , IL-4, IL-8, IL-10 va TNF- α baholandi. Bemorlar 2 guruhga ajratildi: 1-guruh – BA va normal tana massasiga ega 32 nafar bemor, 2-

guruh – BA va I-II darajadagi semizligi bor bo‘lgan 28 nafar bemor. Nazoratni to‘g‘ri baholash uchun 20 ta amaliy sog‘lom bemor ham tekshirildi.

Natijalar: IL-1 β ning qon zardobidagi miqdori 1-guruhda sog‘lom insonlarga nisbatan 3,8 barobarga ortdi. 2-guruh, ya‘ni BA va semizligi bo‘lgan bemorlarda esa 1-guruhga nisbatan 1,3 barobar, normaga nisbatan 5,2 barobarga ortdi ($p<0,001$). IL-8 miqdori 2-guruh bemorlarda sog‘lomlarga nisbatan 2,4 barobarga, semizligi bo‘lmagan bemorlarda esa 1,5 barobarga ortdi ($p<0,05$). IL-10 ko‘rsatkichlari 1-guruh bemorlarida normadan 1,2 marta ortdi, 2-guruhda esa sog‘lom odamlar farq qilmadi. TNF- α ko‘rsatkichlari 1 va 2-guruhlarda sog‘lom odamlarga nisbatan mos ravishda 1,9 va 4,2 martaga ko‘paydi ($p<0,01$).

Xulosa: BA va semizligi bor bo‘lgan barcha bemorlarda yallig‘lanish oldi va unga qarshi sitokinlarning, IL-10 dan tashqari, hammasi semizlik kuzatilmagan BA bemorlariga nisbatan birmuncha yuqori natijalar qayd etildi, bu shundan dalolat beradiki, BA va semizlik birgalikda kelganda yallig‘lanish jarayonlari yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Bronxial astma bilan kasallangan bemorlarda uglevod almashinuvining buzilishi

S.X. Matchanov, D.S. Abdurazzakova, K.K. Aliyeva, M.M. Tashpulatova

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Maqsad: bazis terapiya sifatida ingalyatsion glyukokortikosteroidlar qabul qiluvchi hamda huruj davrida tizimli glyukokortikosteroidlar qo‘llaniluvchi bronxial astmali bemorlarda glyukozaga tolerantlikni o‘rganish.

Tekshiruv usullari: tekshiruvga statsionar sharoitda davolanayotgan 50 nafar o‘rta og‘ir kechuvchi bronxial astma bilan kasallangan bemorlar olindi. Bemorlarning o‘rtacha yoshi $52,4\pm 3,8$, kasallik davomiyligi $9,29\pm 1,4$ yil. Ularga glyukozaga tolerantlik testi, glikozirlangan gemogloblin, insulin miqdori va C-peptid tekshirildi.

Natijalar: 5 ta (10%) uzoq vaqt bronxial astma bilan kasallangan bemorlarda birinchi marta paydo bo‘lgan qandli diabet aniqlandi. 13 nafar (26%) bemorlarda glyukozaga tolerantlikni birlamchi buzilishi qayd etildi. Barcha yallig‘lanishga qarshi dori vositalar qabul qilayotgan bronxial astmali bemorlarda glyukozaga tolerantlik testi o‘tkazilishidan oldin C-peptid va insulin miqdorining yuqori ko‘rsatkichlari qayd etildi.

Оглавление

<i>Hurmatli xamkasblar!</i>	3
Клинико-генетические аспекты аллергического ринита	6
Эффективность антигистаминной терапии (эспабастин), в комбинации с базисными препаратами в лечении аллергического ринита	7
Aholi orasida dori allergiyasini uchrash darajasini aniqlash.....	8
Анализ нежелательных реакций лекарственных препаратов, применяющихся в виде лекарственных форм, зарегистрированных в Республике Узбекистан	9
Бронхиал астмаси бор ва тез-тез касал бўладиган болаларнинг сўлак таркибидаги иммуноглобулинларнинг фарқ даражасини баҳолаш	11
Bronxial astma va semizlik birga kelgan bemorlarda sitokinlarning o‘ziga xosligi	12
Bronxial astma bilan kasallangan bemorlarda uglevod almashinuvining buzilishi.....	13
Surxondaryo viloyati aholisi orasida bronxial astma xususiyatlarini taqqoslash	14
Allergologiyada “Allergiya va astma” maktabining ahamiyati	15
Факторы риска развития обострения бронхиальной астмы.....	16
Ведение больных бронхиальной астмой в сочетании с ишемической болезнью сердца.....	17
Surunkali qavarchiqlar: tasnifi va asosiy xususiyatlari	18
Роль мониторинга аэроаллергенов при диагностике и введении пациентов с сезонным аллергическим ринитом	18
Timofeevka (Pheleum pratense) va Polin (Artemisia vulgaris) o‘simligiga sezuvchanlik ortishini in vivo va in vitro tekshiruvini qiyosiy taqqoslash	21
Ведение больных бронхиальной астмой в сочетании с ишемической болезнью сердца.....	22
Allergologiyada astma maktabi va nafas mashqlarining ahamiyati	23
Respublikaning barcha xududlarida axolining allergenlik sensibilizatsiya spekterini o‘rganish	24
Тошкент шаҳри бўйича овқат аллергиясининг учраш частотаси	25
Тошкент шаҳри бўйича контактли аллергия дерматитнинг тарқалиши	26
Навоий шаҳри аҳолиси орасида аллергия касалликларнинг эпидемиологияси.	27
Комплексное применение препаратов Л-монтус и Пейсала при пыльцевой бронхиальной астме.	29
Топические ингибиторы кальциневрина в практике лечения атопического дерматита	30
Uy changi kanachalariga sensibilizatsiyaning turli xududlarda uchrashi	32
Оценка показателя парциального давления кислорода и сердечно – сосудистой системы у больных бронхиальной астмой в зависимости от степени тяжести	34
Polymorphism of the CYP3A5 gene in patients with overcrossed bronchial asthma and COPD	35
Возможности дифференциальной диагностики гипер-IgE-синдрома (синдром Иова) и гипер-IgE-состояний.....	36
Состояние проблемы врожденных ошибок иммунитета в Республике Узбекистан.....	37
Respublika ixtisoslashtirilgan immunologiya va allergologiya markazida 2010-2021 yillar davomida davolangan bemorlarining statistikasi.	38
Жигар циррози касаллигида интерлейкин-6 микдорининг ўзгариши	39